


M.N.XALILOV, A.D.YORBEKOV,
G.T.DONIYAROV, D.D.SHOMURODOV

ORGANIK KIMYO

UGLEVODORODLAR VA ULARNING GALOGENLI HOSILALARI

O'QUV QO'LLANMA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**M.N.XALILOV, A.D.YORBЕКOV, G'.T.DONIYAROV,
D.D.SHOMURODOV**

**ORGANIK KIMYO
(UGLEVODOROD VA ULARNING GALOGENLI
HOSILALARI)..**

O'QUV QO'LLANMA.

Denov-2025

UO'K: 547(075.8)

KBK: 24.239ya73

O-65

Organik kimyo: (uglevodorod va ularning galogenli hosilalari).
M.N.Xalilov, A.D.Yorbekov, G.T.Doniyarov, D.D.Shomurodov. O'quv
qo'llanma. Denov-2025. – 160 b.

Ushbu o'quv qo'llanma "Organik kimyo 1,2" fanidan amaliy
mashg'ulotlari 60720900 – Neft-gaz kimyo sanoati texnologiyasi bakalavr
ta'lim yo'nalishlari bo'yicha taxsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan
bo'lib, o'quv qo'llanma "Organik kimyo 1,2" fanidan olgan nazariy
bilimlarini amaliy mashg'ulotlarini bajarish orqali mustaxkamlashda
yaqindan yordam beradi. O'quv qo'llanma namunaviy fan dastur asosida
shakllantirilgan bo'lib, unda qo'shimcha ravishda mavzularni
mustaxkamlash uchun har bir mavzuga oid nazorat savollari, nazariy
bilimlar keltirilgan.

Mas'ul muharir: dots. Shukurov D.X.

Taqrizchilar:

Abduraxmanova O'g'iloy Kaxxarovna - Guliston davlat universiteti
Kimyo kafedrası professori. k.f.d.

Movlyanov Muxiddin Baxriddin o'g'li -Toshkent kimyo-texnologiya
instituti Yangiyer filiali Kimyoviy texnologiyalar kafedrası t.f.f.d.,(PhD)
dotsenti.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining 2025 yil 14-apreldagi 136 - sonli buyrug'iga asosan nashr
etishga ruxsat berilgan.

ISBN : 978-9910-8422-2-1

© Xalilov M.N., 2025 y.

*"Agar mendan sizni nima qiynaydi?" deb so'rasangiz,
farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman.*

Sh.M. Mirziyoyev

SO'ZBOSHI

Ushbu o'quv qo'llanmani ishlab chiqishdan maqsad yoshlarimizni
Yangi O'zbekistonning sifatli kadrlari sifatida yetishtirish. Yoshlarimizni
jahon talablariga javob beradigan kerakli maxsulotlari ishlab chiqish uchun,
ularga sifatli kadrlar tayyorlash lozim. Ushbu qo'llanma bakalavrlar uchun
dasturamal bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda respublikamizda mavjud
kimyo sanoati korxonaları orasida anorganik, organik va neft kimyosi
sintezi tarmoqlari muhim o'rinni egallaydi, chunki ular asosida polimer, lok-
bo'yoq, farmasevtik mahsulotlar, sun'iy va sintetik tolalar, pestisidlar,
zootsidlar, bakterosidlar, gerbitsid va o'simliklarni himoyalash vositalari,
erituvchi va ekstragentlar, sintetik yoqilg'i, surkov moylari va ularga
qo'shiladigan prisadkalar ishlab chiqaruvchi korxonalarni xomashyo bilan
ta'minlashda ishtirok etadi. Bu esa kimyo sanoatining turli sohalarida
faoliyat olib boruvchi texnolog-muxandislarni organik kimyoni yaxshi
bilishlarini taqozo etadi, chunki "Organik kimyo" fani Neft-gaz kimyo
sanoati texnologiyasi bo'yicha o'qitiladigan barcha mutaxassislik
fanlarining negizini tashkil qiladi. Ushbu o'quv qo'llanma orqali talabalar
ma'ruza mashg'ulotlarida olgan nazariy bilimlarini amaliy
mashg'ulotlarida mustahkamlaydilar. O'quv qo'llanmaning yana bir o'ziga
xos jihati, unda har bir amaliy mashg'ulotdan so'ng mashg'ulotga doir
nazorat savollari, asosiy reaksiya tenglamalari, o'quv qo'llanma oxirida
organik kimyo foydalanilgan fizik kattaliklar jadvali, nazariy bilimlarni
mustahkamlash uchun test savollari berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma mualliflar tomonidan birinchi marotaba chop
etilganligi sababli kamchiliklardan holi emas. Shuning uchun, o'quv
qo'llanmaning mazmuniga doir bildirgan fikr va mulohazalaringizni
mualliflar mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

DENOV TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI ARM
№ 35564

1-AMALIY MASHG'ULOT

ORGANIK MODDALARNI MIQDOR VA SIFAT TAHLILINI O'RGANISH.

Nazariy qism

“Organik kimyo” uglevodorodlar va ular asosida hosil bo'lgan birikmalar kimyosi haqidagi fandır. Hozirgi vaqtda organik birikmalar tarkibiga uglerod va vodorod bilan birgalikda azot, kislorod, oltingugurt, fosfor va undan tashqari davriy sistemaning deyarli barcha elementlari kiradi.

Organik kimyo fan sifatida tabiiy fanlardan alohida ajralib chiqishiga quyidagilar sabab bo'lgan:

- Organik moddalar o'ziga xos tuzilishi
- Organik moddalarning turli tumanligi
- Ularning asosiy qismi tirik organizmlarda uchrashi
- Organik moddalar noorganik moddalar xossalari

takrorlamasligida

- Organik moddalar insoniyat faoliyatida ahamiyati katta ekanligi;
- Organik moddalarning o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi, ularning barchasi yonuvchan, aksariyati dissotsiatsiyaga uchramaydi va tashqi ta'sirga chidamsiz;
- Organik kimyo yuksak taraqqiy etayotgan materiyani o'rganadi.

Organik kimyo alohida fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarimlaridan boshlab shakllanib boshladi. Ammo, bizning bobokalonlarimiz organik birikmalar bilan bundan bir necha ming yillar avval ham tanish bo'lganlar. Ular o'simliklardan yog'lar ajratib olishni, o'simliklardan turli bo'yoqlar, shakar, xushbo'y moylar, vino, pivo, sirka kislotasi, sovun tayyorlashni bilganlar. Keyinchalik bu birikmalarni shaklini o'zgartirish bilan shug'ullanganlar.

Tabiiy birikmalarni qayta ishlashda dastavval haydash usulidan foydalanilgan. Birikmalarni haydash usuli orqali IX-X asrda sirkadan sirka kislotasi, bijg'igan suyuqlikdan XI asrda uzum spirti, XVI asrda esa etil spirtini sulfat kislotasi bilan haydash orqali etil efiri, tabiiy qatronlardan qahrabo va benzoy kislotalar olib boshlandi.

Organik nazariyalar. A.M. Butlerovning organik moddalarning tuzilish nazariyasi.

Asta sekinlik bilan bu sohaga qiziqish ortib boshlagandan keyin, kerakli moddalarni qayta kristallash, suv bug'i yordamida haydash orqali ajratib olish usullari yaratildi.

1748-1756-yilda M.V. Lomonosov va Lavuazelar, moddalar massasining saqlanish qonunini kashf etdilar. Ushbu qonunning kashf etilishi moddalarning kimyoviy tarkibini sifat va miqdoriy jihatdan taxlil qilish imkonini berdi. Kimyoviy moddalarning birinchi sinflanishi Lemerning o'z darsligida, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak 1875 yilda berilgan edi. U insonlar va hayvonlar, o'simliklar bilan bog'liq ya'ni ular organizmlarida uchraydigan moddalarni organik birikmalarga, qolganlarini moddalarni esa noorganik birikmalar jumlasiga kiritgan. Ammo, bu organik moddalarni noorganik birikmalardan ajratishga imkon bermadi. Masalan, qahrabo kislotasi noorganik birikmalar jumlasiga mansub edi, ya'ni uni qahraboni haydash orqali olinardi, potash esa o'simlik moddalari gruppasiga mansub bo'lib qoldi (o'simliklarni yoqilganda hosil bo'ladigan kuldan kaliy karbonat bo'ladi). Kalsiy fosfat ham hayvonot moddalari guruhiga kiritildi (suyakni qizdirib kalsiy fosfati hosil bo'ladi).

XIX asrning birinchi yarmida uglerod birikmalari kimyosini alohida fan sifatida ajratish taklif etildi.

XIX asrning boshlarida shved kimyogari Berselius organik birikmalarni sifat va miqdor jihatidan tahlil qilish borasida ish olib borardi va buning natijasida u shunday xulosaga kelardi: organik moddalar inson, o'simlik va hayvon organizmlarida ilohiy kuch ta'sirida hosil bo'ladi.

Bu vitalistik ta'limot (hayotiy kuch) nazariyasini kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Vitalistik nazariyasi organik kimyoni rivojlanishiga sezilarli darajada to'sqinlik qildi. Organik birikmalarni sintez qilishga o'rinishlarni chekladi. Ammo, bu nazariya kimyoviy tajribalar asosida tez orada bartaraf etildi.

Nemis olimi Fridrix Vyoler noorganik moddalardan foydalangan holda 1824 yilda oksalat kislotani, 1828 yilda mochevinani (karbamid) sintez qildi. Rus olimi

N.N. Zinin 1842 yilda avvallari o'simliklardan olinadigan anilinni

sintetik yo'l bilan oldi. 1845 yilda nemis olimi Kolbe sirka kislotani, 1854 fransuz olimi Bertlo yog'larni, 1961 yilda rus olimi A.M. Butlerov birinchi marotaba shakarsimon moddalarni sintez usuli bilan oldi.

Vitalistik ta'limot halokati XIX asrning birinchi yarmida organik kimyoning asosiy usuli – organik sintez usulini muvaffaqiyatli rivojlanishiga sabab bo'ldi.

XIX asrning ikkinchi yarmilarida o'simlik, hayvon va odam va tirik organizmlarida uchraydigan juda ko'p moddalar sintetik usulda olinib boshlandi. Bu sintezlar natijasida olimlar organik moddalarning olinish jarayonlari kimyoning umumiy qonuniyatlarga bo'ysunishligini aniqladilar.

1-masala: C_3H_8O va C_6H_5OH tarkibli birikmalarning nisbiy molekulyar massasini hisoblang.

Yechish: Organik moddalarning molekulyar massasini hisoblash uchun quyidagicha amallar bajariladi.

$$Mr(C_3H_8O) = 12 \times 3 + 1 \times 8 + 16 \times 1 = 60 \text{ g/mol}$$

Izoh: Moddaning molekulyar massani hisoblash uchun har bir atomning nisbiy atom massasini indeksiga ko'paytiriladi va yig'indi hisoblab chiqiladi. Natija esa moddaning molekulyar massasi hisoblanadi.

2-masala: Uglrod tetraxlorid erituvchisifatida ishlatiladi. Bu modda tarkibidagi uglrodning massa ulushini hisoblang.

Yechish: CCl_4 tarkibidagi uglrodning massa ulushini hisoblash uchun quyidagicha amallar bajariladi.

$$Mr(CCl_4) = 12 \times 1 + 35.5 \times 4 = 154 \text{ g/mol}$$

$$\omega = (m(k))/(M(s)) = 12/154 = 0.0779 = 7.79\%$$

3-masala: Massasi 400 gr bo'lgan eritmadagi massa ulushi 9 % bo'lgan sirka kislotaning massasini hisoblang.

Yechish:

$$C\% = (m(k))/(M(s)) \times 100\% \text{ ushbu formuladan, } m(k) \text{ ni topib olamiz.}$$

$m(k)$ - erigan modda massasi

$M(s)$ - eritmaning umumiy massasi

$C\%$ - Foiz konsentratsiya

$$m(k) = (M(s) \times C)/(100\%)$$

$$m(k) = (400 \times 9)/(100\%) = 36 \text{ gr}$$

4-masala. Vinilxlorid - polivinilxlorid monomeri hisoblanadi. Modda miqdori 1,75 mol bo'lgan vinilxloridning massasini hisoblang.

Yechish:

$$n = m/Mr$$

m -berilgan moddaning massasi

Mr -berilgan moddaning molekulyar massasi

n - modda miqdori, mol

Yuqoridagi formuladan " m " ni topib olamiz

$$m = Mr \times n$$

$$Mr(CH_2CHCl) = 12 + 1 \times 2 + 12 + 1 + 35.5 = 62.5$$

$$m = 62.5 \times 1.75 = 109.375 \text{ gramm}$$

5-masala. Sirka kislotaning massa ulushi 42 % bo'lgan 400 g eritma tayyorlash uchun zarur bo'lgan kislotaning massa ulushlari 8% va 75 % bo'lgan eritmalarning massasini hisoblang.

Yechish:

Ushbu masalani yechish uchun quyidagicha tenglama tuzib olamiz.

75	34	202.985 gr
42	66	400 gr
8	33	197.015

Izoh; Ushbu masalani qaychi usuli bilan ishlash mumkin. Buning uchun mavjud eritmalarning foiz konsentratsiyasini ikki chetiga yozamiz. Hosil qilinishi kerak bo'lgan eritmaning foiz konsentratsiyasini markazga yozamiz. Mavjud eritmalarning foiz konsentratsiyadan hosil qilinishi kerak eritmaning foiz konsentratsiyani ayiramiz va yozamiz. Qolgan qismini esa proporsiya usulda ishlanadi

Mustaqil yechish uchun misol va masalalar

1- masala. $C_3H_7NO_2$ va $C_6H_5SO_3H$ tarkibli birikmalarning nisbiy molekulyar massasini hisoblang.

2- masala. $C_3H_7NH_2$ va $C_6H_4Br_2$ tarkibli birikmalarning nisbiy

molekulyar massasini hisoblang.

3- masala. C_6H_5COOH va $H-COONa$ tarkibli birikmalarning nisbiy molekulyar massasini hisoblang.

4- masala. Geksaxloretan C_2Cl_6 qishloq xo'jaligida zararkunadalarga qarshi ko'plab ishlatiladi. Bu modda tarkibidagi xlorning massa ulushini hisoblang.

5- masala. Saxaroza $C_{12}H_{22}O_{11}$ dagi elementlarning massa ulushini hisoblang.

6- masala. $C_2H_4Cl_2$ dagi xlor elementining massa ulushini hisoblang

$$C\% = (m(k))/(M(s)) \times 100\% C\%$$

$$C\% - \text{Foiz konsentratsiya } m(k) = (M(s) \times C)/(100\%)$$

$$m(k) = (M(s) \times C)/(100\%)$$

9- masala. Propilen - polipropilen olishda ishlatiladi. Modda miqdori 0,3 mol bo'lgan propilenning hajmini hisoblang.


10- masala. Etilen - polietilen olishda ishlatiladigan monomer. Etilenning vodorod va havoga ko'ra nisbiy zichligini hisoblang.

11- masala. Freon-12 (CF_2Cl_2) sovutgich sifatida ishlatiladi. Freon-12 ning havo va vodorodga ko'ra nisbiy zichligini hisoblang.

12- masala. Massasi 31,6 g bo'lgan kalsiy asetatdagi (CH_3CH_2COO)₂Ca uglerod elementining massasini hisoblang.

13- masala. Sanoatda izopropil spirti aseton olishda ishlatiladi. Massasi 18 g bo'lgan izopropil spirt tarkibidagi uglerod elementining massasini hisoblang.

14- masala. Xloroform erituvchi sifatida ishlatiladi. Massasi 47,84 g bo'lgan xloroformdagi xlorning massasini hisoblang.



15- masala. Hajmi 10,08 l bo'lgan metan va etan aralashmasining normal sharoitdagi massasi 10,4 g teng. Aralashmadagi har bir gazning hajmini aniqlang.

16- masala. Hajmi 11,6 l bo'lgan etilen va propilen aralashmasining (normal sharoitda) massasi 17,5 g teng. Aralashmadagi har bir gazning hajmini aniqlang.

17- masala. Hajmi 16,8 l bo'lgan etilen va asetilen aralashmasining normal sharoitdagi massasi 20,5 g ga teng. Aralashmadagi har bir gazning hajmini aniqlang.

18- masala. Masasi 1 kg bo'lgan sirka kislota eritmasida massasi 600 g bo'lgan sirka kislota bor. Eritmadagi sirka kislotaning massa ulushini hisoblang.

19- masala. Sovun pishirishda natriy gidroksid eritmasi ishlatiladi. 1 l suvda massasi 600 g bo'lgan ishqor eritiladi. Eritmadagi natriy gidroksidining massa ulushini aniqlang.

20- masala. Oziq-ovqat sanoatida ishlatiladigan sirka massa ulushi 9 % bo'lgan sirka kislota eritmasidan iborat. Massasi 400 g bo'lgan eritmadagi sirka kislotaning massasini hisoblang.

21- masala. KOH ning massa ulushi 10 %. Xajmi 600 ml va zichligi 1,082 g/ml bo'lgan eritmadagi kaliy gidroksidining massasini hisoblang.

22- masala. Xajmi 300 ml, massa ulushi 96,5 % bo'lgan etanolning spirt - rektifikatdagi (zichligi 0,806) etil spirtining massasi qanday?

23- masala. Massa ulushi 20 va 32 % bo'lgan sirka kislota bilan massasi 150 g va 50 g bo'lgan eritmalar aralashtirildi. Hosil qilingan eritmadagi sirka kislotaning massa ulushini hisoblang.

24- masala. 18 g massali sirka kislotani neytrallash uchun massa ulushi 4 % bo'lgan natriy gidroksid eritmasidan qancha kerak bo'ladi?

25- masala. Massasi 300 g massa ulushi 70 % bo'lgan sirka kislotaning etil spirti bilan o'zaro ta'sirlashuvidan qancha etilasetat olish mumkin.

26- masala. Massasi 420 g massa ulushi 80 % bo'lgan sirka kislota bilan izoamil spirtining o'zaro ta'sirlashuvidan qancha izoamilasetat olish mumkin.

27- masala. Tarkibida 80 % C va 20 % H₂ bo'lgan organik moddaning

molekulyar formulasini keltirib chiqaring. N_2 ga nisbatan zichligi 15 ga teng.

28- masala. Spirtidagi elementlarning massa ulushi: $C=38,75\%$; $H=9,68\%$; $O=51,51\%$. Moddaning vodorodga nisbatan zichligi 31 ga teng. Moddaning formulasini aniqlang.

29- masala. Elementlarning massa ulushi: $C=85,71\%$; $H=14,29\%$. Moddaning vodorodga nisbatan zichligi 21 ga teng. Moddaning formulasini aniqlang.

30- masala. Elementlarning massa ulushi: $C=62,06\%$; $H=10,32\%$; $O=27,58\%$. Moddaning xavoga nisbatan zichligi 1,5 ga teng. Moddaning formulasini aniqlang.

31- masala. Massasi 2,4 g bo'lgan organik modda yonishidan 1,68 l xajm CO_2 va 3,36 l xajm suv hosil bo'lgan. Moddaning vodorodga nisbatan zichligi 16 teng. Moddaning formulasini aniqlang.

32- masala. Massasi 11,2 g bo'lgan uglevodorod yonganda 35,2 g massali CO_2 va 14,4 massa H_2O olindi. Moddaning havoga nisbatan zichligi 1,93 bo'lsa, formulasi qanday?

33- masala. Massasi 13,6 g bo'lgan uglevodorodning yonishidan xajmi 22,4 l bo'lgan CO_2 va 14,4 massa H_2O olindi. Moddaning vodorodga nisbatan zichligi 32 bo'lsa, formulasi qanday?

34- masala. Elementlarning massa ulushi: $C=66,66\%$; $H=11,11\%$; $O=22,22\%$. Moddaning vodorodga nisbatan zichligi 36 ga teng. Moddaning formulasini aniqlang.

35- masala. Modda miqdori 0,03 mol bo'lgan organik moddaning yonishidan 0,06 moldan CO_2 va H_2O hosil bo'lgan. Moddaning havoga nisbatan zichligi 1,5 bo'lsa, molekulyar formulasini keltirib chiqaring.

2-AMALIY MASHG'ULOT ORGANIK MODDALARNING ASOSIY SINFLARI, ULARNI NOMLASH NOMENKLATURASI ANIQLASH.





Nazariy qism

Organik moddalar uchta katta guruhga bo'linadilar. Uglerod zanjiri tuzilishiga qarab ochiq zanjirli (alifatik, alitsiklik yoki yog' qatori) birikmalar va yopiq zanjirli birikmalarga bo'linadilar. Yopiq zanjirli birikmalar o'z navbatida karbotsiklik (yopiq zanjir faqat uglerod atomlaridan hosil bo'lgan) va geterotsiklik (yopiq zanjir hosil bo'lishida boshqa elementlarning atomlari ham ishtirok etadi) birikmalarga bo'linadi.

Karbotsiklik birikmalar o'z navbatida alitsiklik va aromatik birikmalarga bo'linadilar.





Quyida birikmalarning sinflariga misolar keltiramiz:

1. Ochiq zanjirli birikmalar:




2. Karbotsiklik birikmalar:


a) alitsiklik birikmalar:




b) aromatik birikmalar



toluol



fenol



naftalin

3. Geterotsiklik birikmalar:




etilen oksid



tiofen



piridin



pirazin

Har qaysi qator organik birikmalari o'z tuzilishi va tarkibiga qarab sinflarga bo'linadilar. Alifatik va aromatik qator birikmalarining eng oddiy vakillari uglevodorodlar hisoblanadi. Uglevodorodlardagi vodorodlarni atomlar va atomlar guruhi (funksional guruhlar) ga almashinishi natijasida shu qator birikmalarining ma'lum sinflari hosil bo'ladi.

Ma'lum bir o'rinbosarli yoki funksional guruh uglevodorodlar va ularning hosilalari gomologik qator hosil qiladi. Gomologik qator deb tuzilishi va xossalari o'xshash, keyingi xadi oldingi xadidan $-CH_2-$ guruhga farq qiladigan birikmalar qatoriga aytiladi.

Organik birikmalarning muhim sinflariga quyidagilar kiradi:

1. Uglevodorodlar
2. Uglevodorodlarning galogenli hosilalari
3. Spirtlar
4. Oddiy va murakkab efirlar Karbonilli birikmalar
5. Karbon kislotalar
6. Aminobirikmalar
7. Nitrobirikmalar
8. Sulfokislotalar
9. Metallorganik birikmalar
10. Aralash funkliyali birikmalar

1- masala. Gomologik qator tushunchasiga izoh bering. Alkanlarning umumiy formulasi qanday? Tarkibida sakkizta, o'n ikkita va o'n beshta uglerod atomlari bo'lgan to'yingan uglevodorodlarning molekulyar formulalarini yozing.

Yechish:

Izoh; Gomologik qatorlar - kimyoviy xossalari va tuzilishi jihatidan bir-biriga yaqin bo'lib, molekulasining uglevodorodli radikallarida bitta yoki bir nechta metilen guruhi (CH_2) borligi bilan bir-biridan farq qiladigan turdosh organik birikmalar.

Alkanlarning umumiy formulasi C_nH_{2n+2} $n=8, 12, 15$

C_8H_{18} -oktan, $C_{12}H_{26}$ -dodekan, $C_{15}H_{32}$ -pentadekan

2-masala. Organik kimyoda "Vitalizm" nazariyasini ilgari surgan olim kim?

Yechish: Ya. Berzelius


Izoh: Vitalizm (lotincha *vitalis* - "hayotiy") - tirik organizmlarda hayotiy hodisalarni boshqaradigan nomoddiy g'ayritabiiy kuch - "hayotiy kuch" (lotincha *vis vitalis*) ("jonlar", "entelechies", "" mavjudligi haqidagi eskirgan ta'limot. archaea va boshqalar). Vitalizm nazariyasi biologik organizmlardagi jarayonlar shu kuchga bog'liqligini va uni fizika va kimyo qonunlari bilan to'liq tushuntirib bo'lmasligini ta'kidlaydi.

3-masala. Tiplar nazariyasini qachon va qaysi olim yaratgan?

Yechish: 1851-yilda Sh. Jerar

1840-1854-yillarda radikallar nazariyasi o'rniga Tiplar nazariyasi vujudga keldi. Bu nazariyaning asoschilari Sh. Jerar, J. Dyuma, A. Loran, A. Kekuledir.

4-masala. Quyidagi alkillarni IUPAK nomenklaturasi bo'yicha nomlang:



Yechish:

- A) Izopentil
- B) Uchlamchi 2,3 dimetilpentil-2
- C) Uchlamchi 3-metil, 5-izopropil heptil-3

Mustaqil yechish uchun misol va masalalar

1- masala. Metan, etan, propan, butan, pentan va geksanning molekulyar va struktura formulalarini yozing. Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi uglerod atomlarini belgilang.

2- masala. Qaysi olim birinchi bo'lib shovul kislota va mochevinani noorganik moddalardan sintez qilgan?

3- masala. Radikallar nazariyasi qachon va qaysi olim(lar) tomonidan yaratildi?

4- masala. Organik molekullardagi bog'larni chiziqchalar bilan belgilashni birinchi bo'lib qaysi olim taklif etgan?


5- masala. Normal tuzilishga ega bo'lgan metan qator uglevodorodlarning dastlabki o'nta vakilining struktura formulasini yozing. Ana shu uglevodorodlarga tegishli bo'lgan birlamchi uglevodorod qoldiqlarini (alkillarni) yozing. Barcha uglevodorodlarni va alkillarni nomlang.

6- masala. Qanday birikmalarni izomerlar deyiladi? Butanlar, pentanlar va geksanlarning barcha izomerlarini yozing. C_6H_{14} tarkibli uglevodorodning izomerlarida nechta birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi uglerod atomlari mavjud.

7- masala. Molekulasida: a) ikkita uchlamchi uglerod atomi va b) bitta to'rtlamchi uglerod atomi bo'lgan heptanning eng yaqin gomologlarini yozing.

8- masala. a) C_3H_8 , b) C_4H_{10} tarkibli uglevodorodlardan nechta alkil izomerlar hosil bo'ladi. Ularning formulalarini yozing va nomlang.

9- masala. Quyidagi tarkibli uglevodoroddagi birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi uglerod atomlarini aniqlang va formulasini yozing.




10- masala. To'yingan uglevodorodlarni rasional nomenklatura bo'yicha nomlanishiga tarif bering va shu nomenklaturaga asosan a) C_4H_{10} , b) C_5H_{12} tarkibli uglevodorodlarning izomerlarini nomlang.

11- masala. Quyidagi uglevodorodlarning struktura formulalarini yozing: a) tetrametilmetan; b) metildietilmetan; v) diizopropilmetan; g) trimetilpropilmetan; d) metil-di-uchlamchi-butilmetan.

12- masala. $CH_3 - CH_2 - CH_2 - CH_2 - CH_3$ formuladagi barcha ikkilamchi uglerod atomlaridagi vodorodlarni metil- radikaliga almashinishidan hosil bo'ladigan izomerlarni yozing va rasional nomenklaturaga asosan nomlang.

13- masala. To'yingan uglevodorodlarni IUPAK nomenklaturasi bo'yicha nomlashga ta'rif bering va shu nomenklaturaga asosan: a) C_5H_{12} , b) C_6H_{14} tarkibli birikmalarni izomerlarini nomlang.


14- masala. Quyidagi to'yingan uglevodorodlar radikallarini nomlang. O'xshashlarini belgilang:



15- masala. a) 2-etilpentan; b) 2,2,4-trimetilpentan; v) 2,5,6,6-tetrametil-5- etiloktanlarning struktura formulalarini yozing. Ulardan qaysi

biri IUPAK nomenklaturasiga asosan noto'g'ri nomlangan?

16- masala. Quyidagi uglevodorodlarni IUPAK nomenklaturasiga asosanib nomlang:




17- masala. a) 3-metil-3-etilpentan; b) 2,4,6-trimetilheptan; v) 2,2,4,4-tetrametil-3,3-dietilpentan; g) 2,5-dimetil-4-propil-4-izopropilheptan-larni struktura formulalarini yozing. Ularni rasional nomenklatura bo'yicha nomlang.

18- masala. Quyidagi birikmalarni IUPAK nomenklaturasi bo'yicha nomlang:


a) dimetildipropilmetan; b) etilizopropilbutilmetan; v) trietil-uchlamchi-butilmetan;

g) dimetil-ikkilamchi-butilizobutilmetan.

19- masala. IUPAK nomenklaturasi bo'yicha quyidagi birikmalarni nomlang:



20- masala. Berilgan formulalar orasidan faqat yozilishi jihatidan farqlanadiganlarini aniqlang:




21- masala. Organik birikmalar tarkibida uglerod, vodorod, azot, oltingugurt va galogenlar borligini (sifat analizi) qanday aniqlash mumkin.

22- masala. 2-Metilbutanga nechta birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi radikallar to'g'ri keladi? Ularni yozing.

DENOV TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI ARM
№ 35564

3-AMALIY MASHG'ULOT

ORGANIK BIRIKMALARNING REAKSION QOBILIYATI, REAKSIYA TEZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI



O'RGANISH ANIQLASH.

Nazariy qism


Noorganik birikmalar orasida boruvchi jarayonlarning 4 turi ma'lum bo'lsa, organik moddalar orasida boradigan jarayonlarning turlari ko'pchilikni tashkil etadi. Organik birikmalarning reaksiya vaqtida uglerod atomlarining soni o'zgarishligi yoki o'zgarishi mumkin. Shunga ko'ra, bu jarayonlarni asosan 2 ta katta guruhga bo'linadi.

Kimyoviy reaksiyada uglerod atomining soni o'zgarmaydigan jarayonlar.

Bu turga quyidagi reaksiyalar kiradi:


1. Almashinish reaksiyalari: $\text{CH}_3\text{Cl} + \text{NaOH} = \text{CH}_3\text{OH} + \text{NaCl}$
2. Birikish reaksiyasi: $\text{C}_2\text{H}_4 + \text{HCl} = \text{CH}_3\text{CH}_2\text{Cl}$
3. Tortib olish (eliminirlanish):

Izomerlanish reaksiyalari:




Uglerod atomining skeleti o'zgarishi bilan boruvchi jarayonlarga quyidagilar kiradi:


1. Uglerod zanjirining uzayishi:
 $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{J} + \text{NaCN} \longrightarrow \text{CH}_3\text{CH}_2\text{CN} + \text{NaJ}$
2. Uglerod zanjirning qisqarishi:
 $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{COONa} + \text{NaOH} \longrightarrow \text{CH}_3 - \text{CH}_3 + \text{Na}_2\text{CO}_3$
3. Uglerod zanjirning izomerlanishi reaksiyasi:




4. Yopiq zanjir hosil bo'lishi reaksiyasi:



5. Halqani ochilishi reaksiyasi:



6. Halqaning torayishi va kengayishi reaksiyalari:




Organik moddalar orasida boruvchi reaksiyalarning mexanizmi


Kimyoviy reaksiyalar vaqtida turli oraliq birikmalarni hosil bo'lish yo'li kimyoviy jarayon mexanizmi deyiladi. Ko'p organik reaksiyalar molekular, molekular bilan ionlar, molekular bilan erkin radikallar orasida sodir bo'ladi.

Reaksiyaga kiruvchi molekular reaksiya vaqtida quyidagicha parchalanishi mumkin:

Gomolitik parchalanish: Bunda molekularni tashkil etuvchilarni A va B deb faraz qilsak, ular orasida bog' hosil qilishda ishtirok etadigan elektron jufti ikki tashkil etuvchi (molekula) o'rtasidan teng ikkiga bo'linadi, ya'ni alohida-alohida



Buning natijasida A va B erkin radikallarni hosil qiladi. Agar A va B reaksiyaga kirishayotgan CD molekula bilan birgalikda A* quyidagi sxema bo'yicha ta'sir etsa



bunday reaksiyalarni radikal almashinish mexanizmi bilan boruvchi reaksiya deyiladi va R^* bilan belgilanadi.


Erkin radikalli jarayonlar yorug'lik nuri, yuqori harorat, turli birikmalarning parchalanishi natijasida hosil bo'ladigan radikallar ta'sirida tezlashadi.

Erkin radikallarni oson biriktirib oladigan birikmalar gidroksinon (difenilamin) ta'sirida sekinlashadi: qutblanmagan erituvchilar yoki bug' fazada boradi; ko'pchiligi o'z-o'zidan tezlashadigan va zanjirli xususiyatga ega.


Geterolitik parchalanishda A va B tashkil etuvchilar orasidagi umumiy elektron juftini shu tashkil etuvchilardan biri boshqasini elektronni tortib oladi. Natijada, elektron juftini tortib olgan tashkil etuvchi ion-manfiy, o'z elektronini bergan tashkil etuvchi esa musbat zaryadga ega bo'lgan ionlarga ajraladi:



Musbat zaryadli ion (A) ni elektrofe'l (elektronni yoqtiraman) agent deyiladi. Quyidagi sxema bilan boruvchi reaksiyani elektrofe'l almashinish reaksiyasi deyiladi va S_E belgisi bilan belgilanadi.



Manfiy zaryadli ion (V^-) ni nukleofe'l agent va u almashinadigan



reaksiyani nukleofil almashinish reaksiyasi deyiladi, hamda S_N belgisi bilan ifodalanadi.

Ion almashinish yoki birikish reaksiyalari quyidagi hususiyatlarga ega:

1. Kislota va asoslar ishtirokida reaksiya tezligi ortadi, ya'ni ular katalizator vazifasini o'taydilar. Yorug'lik yoki erkin radikallar ularga ta'sir etmaydilar.

2. Erkin radikallarni biriktirib oluvchilar ham ta'sir etmaydi.

3. Reaksiyaning tezligi erituvchining tabiatiga bog'liq bo'ladi.


4. Asosan reaksiya erituvchi ishtirokida suyuq fazada boradi, kamdan-kam hollarda esa bug' fazada ham borishi mumkin.

5. Bunday reaksiyalar asosan birinchi yoki ikkinchi tartibli bo'ladi.

1-masala. Metil – radikali H_3C^* da uglerod atomi zaryadi (Z_C) ni hisoblang.

Yechish: *Uglerod atomining zaryadi nolga teng.*

2- masala. O'rinbosarlardan qaysi biri nisbatan kuchli musbat induktiv effekt (+I-effekt) namoyon qiladi?




Yechish:

$(CH_3)_3C-$ ushbu birikma qolgan birikmalarga nisbatan yuqori musbat induktiv namoyon qiladi.

3- masala. $CH \equiv C-CH=CH_2$ tuzilishli birikmada uglerod atomlari qanday gibridlangan?

Yechish:



1- uglerod sp^2

2- uglerod sp^2

3- uglerod sp

4- uglerod sp

Mustaqil yechish uchun misol va masalalar

1-masala. O'rin olish (almashinish) reaksiyalari qaysi harf bilan belgilanadi?

2-masala. Birikish reaksiyalari qaysi harf bilan belgilanadi?

3-masala. Ajralish reaksiyalari qaysi harf bilan belgilanadi?

4-masala. Qayta guruhlanishlar qanday harf bilan belgilanadi?

5-masala. Radikal o'rin olish reaksiyalari qanday belgilanadi?

6-masala. Elektrofil o'rin olish reaksiyalari qanday belgilanadi?

7-masala. Nukleofil birikish reaksiyalari qanday belgilanadi?

8- masala. Bimolekulyar nukleofil o`rin olish reaksiyalari qanday belgilanadi?

9- masala. Metan molekulasidagi uglerod atomining sp^3 -gibridlanishida nechta bir xil gibrid orbital hosil bo`ladi?

10-masala. Atsetilen molekulasidagi uglerod atomlarining sp -gibridlanishida nechta bir xil gibrid orbital hosil bo`ladi?

11-masala. Qutbli molekular orasidagi dipol-dipolli o`zaro ta`sirlashuvlarning energiyasi necha kkal/mol dan oshmaydi?

12-masala. Vodorod bog`lanishlar energiyasi necha kkal/molga teng?

13-masala. O`rinbosarlardan qaysi biri nisbatan kuchli musbat induktiv effekt (+I-effekt) namoyon qiladi?

14-masala. Quyidagi o`rinbosarlardan qaysi biri nisbatan kuchli manfiy induktiv effekt (-I-effekt) namoyon qiladi?

15-masala. Toq elektron saqlagan neytral zarrachalar (atomlar yoki atomlar guruhi) qanday nomlanadi?

16-masala. Uglerod atomida vakant p-orbitali bor zaryadlangan zarracha qanday nomlanadi?

17-masala. Uglerod atomida umumlashmagan elektron jufti bor zaryadlangan zarracha qanday nomlanadi?

18-masala. Nukleofil zarracha bilan uning elektron jufti hisobiga bog` hosil qiladigan, elektronakseptor xossasiga ega musbat zaryadlangan zarrachalar qanday umumiy nom bilan yuritiladi?

19-masala. Metilnatriy $H_3C^- Na^+$ dagi natriy atomi qanday markaz? masala. Ion bog`lanishli birikmalarga misollar keltiring.

20-masala. Induksion effektdan foydalanib karbon kislotalarning qaysi biri eng kuchli ekanligini ko`rsating?

21-masala. 1,3-butadiyenda mezomer effektning qaysi turi namoyon bo`ladi?

22-masala. Metan molekulasi energiya yutib, asosiy S_0 holatidan qo`zg`algan S_1 holatiga o`tganida qanday elektron o`tishi yuz beradi?

4-AMALIY MASHG`ULOT UGLEVODRODLAR. ALKANLAR MAVZUSIGA DOIR AMALIY MASHG`ULOT IZOMERIYASI VA NOMENKLATURASINI O`RGANISH

Nazariy qism

Uglevodorodlar deb uglerod va vodoroddan tashkil topgan organik birikmalarga aytiladi. Uglerod-uglerod orasidagi bog`lanishining xarakteri va uglerod bilan vodorodlar miqdoriy nisbatlariga qarab ular to`yingan va to`yinmagan uglevodorodlarga bo`linadilar.

To`yingan uglevodorodlar deb uglerod qo`shni uglerod atomlari bilan bog`lanishga o`zining faqat bir valentligini sarflab, qolganlari vodorod atomlari bilan bog`langan birikmalarga aytiladi. Uglerodning hamma atomlari sp^3 -gibridlangan holatda bo`ladi.


To`yingan uglevodorodlar C_nH_{2n+2} umumiy formulaga muvofiq keladigan gomologik qatorni hosil qiladilar. Bu yerda $n=1,2,3,4 \dots$ va hokazo butun sonlar.

To`yingan uglevodorodlarning tabiatda uchrashi va olinishi


To`yingan uglevodorodlarning quyi vakillari tabiiy gazning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Qattiq holdagi to`yingan uglevodorodlar bitum, asfalt, azokerit (tog`mo`mi) larning asosiy tarkibiy qismidir, neft to`yingan uglevodorodlar aralashmasiga boy tabiiy manbadir. To`yingan uglevodorodlarning ba`zi vakillari o`simliklardan ajratib olingan. Parafin uglevodorodlari fiziologik aktiv moddalar bo`lmasada, lekin kuchli erituvchilar hisoblanadi, shu sababli organizm uchun xavflidir.

Olinish usullari (sanoatda)

1. Elementlardan sintez qilib olish.




yoki qo`ng`ir ko`mirni gidrogenlash natijasida to`yingan uglevodorodlar olinadi, bunda sun`iy benzin olish mumkin.




2. Uglerod (II)-oksidini gidrogenlash orqali to`yingan

uglevodorodlarni olish (F.Fisher).




Bunda asosan n-tuzilishli to'yingan uglevodorodlarning aralashmasi hosil bo'ladi va "Sintin" deb ataladi.

3. Neft mahsulotlarini krekingsh natijasida to'yingan uglevodorodlar olinadi.




Laboratoriyada olinish usullari:


4. Alyuminiy karbidga suv ta'sir etish orqali metanni olinishi.





5. Metanni Bertlo usuli bo'yicha uglerod sulfiddan olinishi.





6. Sirka kislota tuzidan (dekarboksillanish) olish.






7. Vyurs reaksiyasi (1985). Alkanlarni galogenli hosilalarini natriy metali bilan qizdirib to'yingan uglevodorodlar vakillarini sintez qilib olish.





Bu reaksiyaning mexanizmini Shorigin tomonidan 1907 yilda aniqlangan. U quyidagi ikki bosqichdan iborat.





8. 1849 yilda Nemis olimi Kolbe organik kislota tuzlarini elektroliz qilib to'yingan uglevodorodlarni oladi.





9. Har xil birikmalarni qaytarish orqali.



10. To'yinmagan va o'ta to'yinmagan uglevodorodlarni gidrogenlash.





11. Metall organik birikmalarni suv ta'sirida parchalash usuli bilan ham to'yingan uglevodorodlarni olish mumkin.




Grinyar reaktivi orqali to'yingan uglevodorodlarni olish: dastlab

Grinyar reaktivi olinadi. Olingan magniy organik birikma suv ta'sirida parchalanib to'yingan uglevodorodlar olinadi.



12. Galogenhosilalarni qaytarilishi. Pt



Fizik xossalari

Alkanlarning dastlabki vakillari $\text{C}_1\text{-C}_4$ oddiy sharoitda gaz holidagi moddalar, $\text{C}_5\text{-C}_{16}$ gacha bo'lganlari suyuqlik va C_{17} - dan boshlab esa qattiq moddalardir. Gomologik qatorda uglerod atomlarining soni ortishi bilan alkanlarning suyuqlanish va qaynash harorati hamda solishtirma og'irligi oshib boradi. Alkanlarning solishtirma og'irligi va zichligi gomologik qatordagi uglevodorodlarning molekulyar og'irligi oshishi bilan ortib boradi. Tarmoqlangan zanjirli izomerlarning qaynash haroratlari normal zanjirli izomerlarnikidan pastroq bo'ladi. Masalan, n-pentan 36°C da, izopentan 28°C da qaynaydi. To'yingan uglevodorodlar suvda juda yomon eriydi, organik erituvchilarda yaxshi eriydi.

Alkanlar qutblanmagan birikmalar va ularni qutblash juda qiyin. Ular suvdan yengil va suvda umuman erimaydi. Yuqori qutblangan boshqa erituvchilarda ham erimaydi. Suyuq alkanlar ko'pincha organik moddalar uchun yaxshi erituvchidir. Metan va etan hamda yuqori alkanlarning xidi yuq, lekin boshqa uchuvchan uglevodorodlarda xidliklari uchraydi. Alkanlar yonuvchan moddalar, metan rangsiz yonadi.

Nomlanishi	Formulasi	Tqayn $^\circ\text{C}$	Tsuyuq $^\circ\text{C}$	D_{20}^4
Metan	CH_4	-161.5	-182.5	0.4150
Etan	C_2H_6	-88.6	-182.8	0.5610
Propan	C_3H_8	-42	-187.7	0.5853

Butan	C_4H_{10}	-0.5	-138.3	0.6000
Pentan	C_5H_{12}	□36.1	-129.7	0.6262
Geksan	C_6H_{14}	68.7	-95.3	0.6594
Geptan	C_7H_{16}	98.4	-90.6	0.6838
Oktan	C_8H_{18}	124.7	-56.8	0.7025
Nonan	C_9H_{20}	150.8	-53.7	0.7176
Dekan	$\text{C}_{10}\text{H}_{22}$	174.0	-29.6	0.7300
Pentadekan	$\text{C}_{15}\text{H}_{32}$	270.6	K10	0.7683
Eykozan	$\text{C}_{20}\text{H}_{42}$	342.7	36.8	0.7780
Pentakozan	$\text{C}_{25}\text{H}_{52}$	400	53.7	0.8012
Triakontan	$\text{C}_{30}\text{H}_{62}$	457	66.1	0.8097

1- masala. Gomologik qator tushunchasiga izoh bering. Alkanlarning umumiy formulasi qanday? Tarkibida sakkizta, o'n ikkita va o'n beshta uglerod atomlari bo'lgan to'yingan uglevodorodlarning molekulyar formulalarini yozing.

Yechish:

Izoh; Gomologik qatorlar - kimyoviy xossalari va tuzilishi jihatidan bir-biriga yaqin bo'lib, molekulasining uglevodorodli radikallarida bitta yoki bir nechta metilen guruhi (CH_2) borligi bilan bir-biridan farq qiladigan turdosh organik birikmalar.

Alkanlarning umumiy formulasi $\text{C}_n\text{H}_{2n+2}$

$n=8, 12, 15$

C_8H_{18} -oktan

$\text{C}_{12}\text{H}_{26}$ -dodekan


$\text{C}_{15}\text{H}_{32}$ -pentadekan

2- masala. Qanday birikmalarni izomerlar deyiladi? Butanlar, pentanlar va geksanlarning barcha izomerlarini yozing. C_6H_{14} tarkibli uglevodorodning izomerlarida nechta birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi

uglerod atomlari mavjud.

Yechish:

- A) $\text{H}_3\text{C}-(\text{CH}_2)_4-\text{CH}_3$ *n-geksan*
 $\text{H}_3\text{C}-\underset{\text{CH}_3}{\text{CH}}-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_3$
 B) *2-metil pentan*
 $\text{H}_3\text{C}-\text{CH}_2-\underset{\text{CH}_3}{\text{CH}}-\text{CH}_2-\text{CH}_3$
 C) *3-metil pentan*
 $\text{H}_3\text{C}-\underset{\text{CH}_3}{\text{CH}}-\underset{\text{CH}_3}{\text{CH}}-\text{CH}_3$
 D) *2,3 dimetil butan*



A) *2,2 dimetil butan*

16 ta birlamchi

9 ta ikkilamchi

4 ta uchlamchi


1 ta to'rtlamchi

Izoh: Izomeriya- miqdoriy va sifat tarkibi bir xil, lekin tuzilishi har xil bo'lgan moddalarga aytiladi. Izomeriya yunoncha so'z bo'lib "Izo" bir xil, "meros" qism degan ma'noni anglatadi. Izomeriyani quyidagi turlari mavjud.

- A) *Zanjir izomeriya*
 B) *Holat izomeriya*
 C) *Sinflararo izomeriya*
 D) *Geometrik izomeriya*

Uchlamchi

To'rtlamchi



Birlamchi

Ikkilamchi

3- masala. To'yingan uglevodorodlarni rasional nomenklatura bo'yicha nomlanishiga tarif bering va shu nomenklaturaga asosan a) C_4H_{10} , b) C_5H_{12} tarkibli uglevodorodlarning izomerlarini nomlang.


Yechish:

Alkanlar nomlashda tarixiy-trivial, ratsional hamda IUPAC nomenklaturalardan foydalaniladi.


Ratsional nomlashda metan asos sifatida olinadi va qolgan alkanlar metanga CH₂-metilen guruhi qo'shilishidan hosil bo'lgan hosilasi sifatida tan olinadi.

Misol uchun.


a) (Propan) Dimetil metan



b) (Butan) metiletil metan



(Pentan) metilpropilmetan yoki dietilmetan







4-masala. To'yingan uglevodorodlarning asosiy xom ashyo manbalarini ayting.

Yechish:

Neft, mo'm, ko'mir, toshko'mir smolasi to'yingan uglevodorodlar aralashmasining asosiy tabiiy manbai hisoblanadi.

5-masala. Metanni yorug'likda xlrlash reaksiyasini yozing. Mexanizmini izohlang. Metanni xlrlash mahsulotlarini qo'llanilish sohalarini ayting.

Yechish:



Mustaqil yechish uchun misol va masalalar


1- masala. Metan, etan, propan, butan, pentan va geksanning molekulyar va struktura formulalarini yozing. Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi uglerod atomlarini belgilang.

2- masala. Normal tuzilishga ega bo'lgan metan qator uglevodorodlarning dastlabki o'nta vakilining struktura formulasini yozing. Ana shu uglevodorodlarga tegishli bo'lgan birlamchi uglevodorod qoldiqlarini (alkillarni) yozing. Barcha uglevodorodlarni va alkillarni nomlang.

3- masala. Molekulasida: a) ikkita uchlamchi uglerod atomi va b) bitta to'rtlamchi uglerod atomi bo'lgan geptanning eng yaqin gomologlarini yozing.

4- masala.. a) C₃H₈, b) C₄H₁₀ tarkibli uglevodorodlardan nechta alkil izomerlar hosil bo'ladi. Ularning formulalarini yozing va nomlang.

5- masala.



tarkibli uglevodoroddagi birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi uglerod atomlarini aniqlang va formulasini yozing.


6- masala. Quyidagi uglevodorodlarning struktura formulalarini yozing: a) tetrametilmetan; b) metildietilmetan; v) diizopropilmetan; g) trimetilpropilmetan; d)metil-di-uchlamchi-butilmetan.

7- masala. $CH_3 - CH_2 - CH_2 - CH_2 - CH_3$ formuladagi barcha ikkilamchi uglerod atomlaridagi vodorodlarni metil- radikaliga almashinishidan hosil bo'ladigan izomerlarni yozing va rasional nomenklaturaga asosan nomlang.


8- masala. To'yingan uglevodorodlarni IUPAC nomenklaturasi bo'yicha nomlashga ta'rif bering va shu nomenklaturaga asosan:

a) C_5H_{12} , b) C_6H_{14} tarkibli birikmalarni izomerlarini nomlang.


9- masala. Quyidagi to'yingan uglevodorodlar radikallarini nomlang. O'xshashlarini belgilang:



10- masala. Quyidagi uglevodorodlarni IUPAC nomenklaturasiga asosan nomlang:



11- masala. Quyidagi alkilarni IUPAC nomenklaturasi bo'yicha nomlang:



12- masala. a) 2-etilpentan; b) 2,2,4-trimetilpentan; v) 2,5,6,6-tetrametil-5- etiloktanlarning struktura formulalarini yozing. Ulardan qaysi biri IUPAC nomenklaturasiga asosan noto'g'ri nomlangan?


13- masala. a) 3-metil-3-etilpentan; b) 2,4,6-trimetilgeptan; v) 2,2,4,4- tetrametil-3,3-dietilpentan; g) 2,5-dimetil-4-propil-4-izopropilgeptanlarni struktura formulalarini yozing. Ularni ratsional nomenklatura bo'yicha nomlang.

14- masala. Quyidagi birikmalarni IUPAC nomenklaturasi bo'yicha nomlang:

a) dimetildipropilmetan; b) etilizopropilbutilmetan; v) trietil-uchlamchi-butilmetan;

g) dimetil-ikkilamchi-butilizobutilmetan.


15- masala. IUPAC nomenklaturasi bo'yicha quyidagi birikmalarni nomlang:



16- masala. Organik birikmalar tarkibida uglerod, vodorod, azot, oltingugurt va galogenlar borligini (sifat analizi) qanday aniqlash mumkin.

17- masala. 2-Metilbutanga nechta birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi radikallar to'g'ri keladi? Ularni yozing.


18- masala. Berilgan formulalar orasidan faqat yozilishi jihatidan farq-lanadiganlarini aniqlang:



19- masala. Suyuq sun'iy yoqilg'i olishning qanday usullarini bilasiz?

20- masala. To'yinmagan uglevodorodlarni katalitik gidrirlab butan va 2,2,4 trimetilpentan hosil qiling. Gidrirlash katalizatorlari sifatida qaysi elementlardan foydalanish mumkin.

21- masala. Qaysi reagentlar yordamida quyidagi birikmalarni uglerod atomlari sonini o'zgartirmasdan to'yingan uglevodorodlarga aylantirish mumkin? Reaksiya tenglamalarini yozing.



22- masala. Vyurs reaksiyasiga asoslanib: a) n-oktan; b) n-dekan; v) 2,3-dimetilbutan; g) 3,4-dimetilgeksan hosil qiling. Reaksiya mexanizmlarini keltiring.

23- masala. 1 mol etilyodid va 1 mol propilyodidlar aralashmasiga natriy metalli ta'siridan qanday uglevodorod hosil bo'ladi?

24- masala. n-Dekanni, n-oktanni, 2,3-dimetilbutanni va 3,4-dimetilgeksanlarning Vyurs reaksiyasi yordamida hosil bo'lish tenglamasini


yozing.

25- masala. Etilyodid bilan propilyodid aralashmasiga natriy metalli ta'sir ettirilganda qanday uglevodorodlar hosil bo'ladi?


26- masala. Vyurs va Grinyar reaksiyalari yordamida butan, izobutan, 2,2,3-trimetilgeksanlarni hosil qiling.

27- masala. Qanday galogenli hosilalardan Vyurs reaksiyasi asosida n-geksan hosil bo'ladi. Yuqori unum bilan hosil bo'ladigan jarayonning mexanizmini taklif eting.

28- masala. Vyurs reaksiyasi yordamida quyida keltirilgan to'yingan uglevodorodlarni galogenli hosilalar yordamida geksan, 2-metilbutan va 2,7-dimetiloktanlarni hosil qilish reaksiyalari tenglamasini yozing:



29- masala. Quyidagi magniyorganik birikmalarni gidrolizlanish reaksiyasi va etilyodid bilan o'zaro ta'sir reaksiyalarini yozing:



30- masala. Laboratoriya sharoitida metanni sintez qilish reaksiyalarini yozing.


31- masala. Quyidagi magniy organik birikmalardan qanday uglevodorodlar hosil bo'ladi:



32- masala. Tegishli karbon kislotaning kaliyli tuzining suvli eritmasi elektrolizi orqali etan hosil qiling. Anod va katodda boradigan reaksiyalarning mexanizmini tahlil qiling.

33- masala. a) Propion; b) moy va v) izomoy kislotalarning natriyli tuzlari suvli eritmasini elektrolizi natijasida qanday uglevodorodlar olish mumkin? Reaksiya tenglamalarini yozing.

34- masala. Quyidagi o'zgarishlar sxemasini yozing:



35- masala. $(\text{CH}_3)_3\text{C}-\text{CH}_2-\text{COOH}$ tarkibli birikma, a) natriyli tuzining elektrolizidan; b) kaliyli tuzining ishqor bilan qizdirilishidan hosil bo'ladigan uglevodorodlarni nomlang.

36- masala. 2,5-Dimetilgeksani, a) Vyurs usulida; b) tegishli olefinlarni gidrirlab; v) tegishli karbon kislota tuzlarini dekarboksillab olish usullarini yozing.

37- masala. Molekulasida 3, 4, 6 va 7 ta uglerod atomlari bo'lgan birikmalardan 2,3-dimetilbutan olish usullarini taklif qiling.

38- masala. Uglerod atomlari a) ikki marta ortadigan; b) bittaga kamayadigan;

v) o'zgarmaydigan parafinlar olish sxemalarini yozing.

39- masala. To'yingan uglevodorodlarda uglerod atomlari qanday valent holatlarda bo'ladi? Bunday holat uchun nima harakterli hisoblanadi.

40- masala. a) Metan; b) etan; v) propan molekulari uchun atom-orbital tuzilishini keltiring.

41- masala. To'yingan uglevodorodlardagi C-C va C-H bog'larni harakterlang (bog' uzunligi, energiyasi, qutblanganligi, qutblana olishligi). Alkanlarning reaksiyon qobiliyati haqida qanday xulosa qilish mumkin?

42- masala. Gomolitik (radikal) va geterolitik (ionli) reaksiya haqida tushuncha bering. Bog'larning gomolitik yoki geterolitik parchalanishi reaksiya mexanizmiga qanday ta'sir etadi.

43- masala. Quyidagi izomer uglevodorodlarni qaynash temperaturasini ortishi tartibida joylashtiring: n-pentan, metilbutan, dimetilpropan.

44- masala. Izobutan va 2-metilbutanni Konovalov usuli bo'yicha nitrolash reaksiyalarining sxemalarini yozing va hosil bo'lgan moddalarni nomlang.



45- masala. Metanning a) vodorodga va b) havoga nisbatan zichligini aniqlang. Normal sharoitda 1 l metanning massasini hisoblang.

46- masala. Propan va butanning kislorodda to'la yonish reaksiyalari tenglamasini yozing.

47- masala. 2 l metan va 1 l propan alohida-alohida yondirilganda qaysi birida karbonat angidrid ko'p miqdorda hosil bo'ladi?


48- masala. Konovalov reaksiyasi sharoitida quyidagi to'yingan uglevodorodlarning qaysi biri suyultirilgan nitrat kislota bilan osonroq reaksiyaga kirishadi?

A) B)



Reaksiya tenglamalarini yozing.

49- masala. Quyidagi reaksiyalarni amalga oshiring va hosil bo'ladigan mahsulotlarni ayting:



50- masala. Benzinning oktan soni nimani bildiradi? Qaysi maqsadda benzininga antidektonatorlar qo'shiladi?

51- masala. 10 l etanni n.sh. yoqish uchun necha litr havo kerak bo'ladi?

52- masala. 2-Metilpropanni nitrolash, sulfoxlorlash va bromlash reaksiyalarini yozing.



53- masala. 2-brom-2-metilbutanga ishqorning spirdagi eritmasi ta'sir ettirilganda qanday uglevodorod hosil bo'ladi?

54- masala. Quyidagi kislotaning natriyli tuzi elektroliz qilingan va kristall holatdagi NaOH bilan qo'shib qizdirilganda qanday uglevodorodlar hosil bo'ladi?


55- masala. To'yingan uglevodorodlarga nima uchun radikal o'rin olish reaksiyalari xos.

56- masala. Metanni yorug'likda xlrlash reaksiyasini yozing. Mexanizmini izohlang. Metanni xlrlash mahsulotlarini qo'llanilish sohalarini ayting.

57- masala. Bog'lanish energiyasidan foydalanib, nima uchun metanni xlrlash (a) sxema bo'yicha borishini tushuntiring.



58- masala. Berilgan radikallarning qaysi biri barqaror hisoblanadi. Javobingizni izohlang.



59- masala. Izopentanni monoxlrlashda qanday uglevodorod radikallari hosil bo'ladi. Ulardan eng barqarorini aniqlang.

60- masala. Izobutanni Konovalov usuli bo'yicha nitrolash reaksiyasini yozing. Jarayonning mexanizmini tahlil qiling.

61- masala. Konovalov usulida n-geksan yoki 2-metilpentan nitrolanish reaksiyasini yozing. Ularning qaysi biri oson nitrolanadi? Nima uchun?

62- masala. Dekanni sulfoxlrlash sxemasini yozing. Jarayon mexanizmini tahlil qiling. Reaksiya mahsuloti qanday amaliy ahamiyatga




ega.

63- masala. Nima uchun alkanlarni sulfoxlrlash vaqtida qo'shimcha mahsulot sifatida xloralkanlar hosil bo'ladi?

64- masala. To'yingan uglevodorodlarning oksidlanish reaksiyalari qanday sharoitlarda boradi? Oksidlanish mahsulotlarining qaysilari amaliy ahamiyatga ega.

65- masala. Kreking jarayonining amaliy ahamiyati nimada? Qanday kimyoviy reaksiyalar jarayonni harakterlaydi? Butan misolida bu jarayonni mexanizmini tahlil qiling.

66- masala. Quyidagi o'zgarishlar natijasida hosil bo'ladigan mahsulotlarni nomlang:



66- masala. Galogenli hosilasi degidrogenlanishidan trimetililen hosil qiladigan, nitrolanishidan esa uchlamchi-nitrobirikma hosil qiladigan C_5H_{12} uglevodorodni aniqlang va struktura formulasini yozing?

67- masala. Pentanning izomerlaridan biri nitrolanganda faqat birlamchi nitrobirikma hosil qiladigan uglevodorodni yozing. Reaksiya tenglamasini yozing va javobingizni izohlang.

68- masala. Bromlanganda aksariyat uchlamchi bromli izomer hosil qiladigan, Konovalov usulida nitrolanishidan uchlamchi nitrobirikma hosil qiladigan C_6H_{14} tarkibli uglevodorodning struktura formulasini aniqlang.

5-AMALIY MASHG'ULOT
ALKENLAR MAVZUSIGA DOIR AMALIY
MASHG'ULOT. ETILEN UGLEVDORODLARI
(alkenlar)

Izomeriyasi va nomenklaturasi

Nazariy qism

Alkenlar izomeriyasi.

Uglerod atomlari $n \geq 3$ soniga teng bo'lgan hamda C_nH_{2n} tarkibli oddiy alkenlar uchun izomeriyani 4 ta turi mavjuddir:


1. Uglerodli skelet izomeriyasi.
2. Ikkilamchi bog' holat izomeriyasi.
3. Geometrik izomeriya. Bunda ikkilamchi bog' maydoniga nisbatan o'rin oluvchilar fazoviy turishi bilan ifodalanadi.
4. Sinflararo izomeriya.

Alkenlarni olinishi.



Alkenlarni olishda turli xil usullari ichidan qo'sh uglerod-uglerodli bog' hosil qilishning uchta asosiy usulini ajratish lozim. Ulardan biri to'yingan birikmani uglerodni visial atomlaridan ikkita guruhni elemirlashga asoslangan. Alkenlarni sintezini boshqa usuli alkinlarda uchlamchi uglerod-uglerodli bog'ini ikkilamchi bog'gacha sis- yoki trans- konfigurasiyagacha stereospesifik qaytarishga asoslangan. Uchinchi usul, karbonilli birikmalarni "aktiv metilen guruhga" ega bo'lgan birikmalar bilan ko'plab karbonil-metilenli kondensasiya reaksiyalariga asoslangan.

Quyidagi usullarda alkenlarni sintezi keltirilgan.

1. Alkinlarni sis va trans- alkenlargacha qaytarish orqali ham olish mumkin.





"Lindlar" katalizatori sifatida $BaSO_4$ yoki $CaCO_3$ da adsorbsiyalangan va xinolin bilan dezaktivaziyalangan palladiy bo'la oladi,




P-2-Ni- bu $Ni(OAc)_2$; $NaBH_4$; C_2H_5OH ; $NH_2CH_2NH_2$ katalizatorlari, kolloidli nikeldir va bu katalizator nikel diasetatni natriy borgidrid bilan etanol-etilen diamid sistemasida qaytarish bilan olish mumkin.

Olefinlar neft mahsulotlaridan va organik birikmalarni quruq haydash






masalan



bilan hosil qilinadi.

2. Asetilen qatori uglevodorodlarni gidrogenlab etilen ugdevodorodlar olinadi:





17- masala. 1-brombutandan, 1-xlorpentandan, 2-xlorometilpropandan, 2-yod-2-metilbutandan etilen ulgevodorodlarini hosil qiling. Hosil bo'ladigan alkenlarni nomlang.

18- masala. 1,2-dibrompropandan va 2,3-dibrombutandan hosil bo'ladigan olefinlarni nomlang.

19- masala. 2-Butenni olinishi mumkin bo'lgan barcha usullarini yozing.

20- masala. a) 1,2-dixlorpropanga; v) 2,3-dibrombutanga rux ta'sir ettirilganda qanday birikmalar hosil bo'ladi?

21- masala. Quyida keltirilgan to'yingan uglevodorodlarning galogenli hosilalaridan etilen qatori uglevodorodlarini hosil qiling: a) 1-brombutan; b) 1-xlorpentan; v) 2-xlorometilpropan; g) 3-yod-2-metilbutan. Olingan uglevodorodlarni nomini ayting.

22- masala. 2-Butenni 3 xil usulda hosil qiling.




23- masala. Propilen molekulasining atom-orbitalini keltiring. Uglorod-uglorod orasidagi \square - va \square -bog'larni hosil bo'lishini harakterlang.

24- masala. Uglorod-uglorod orasidagi oddiy va qo'shbog'larning uzunligi, energiyasi, qutblanganligi va qutblana olishligini solishtiring. Qaysi bog'ning reaksiya qobiliyati yuqori?





25- masala. Etilen va propilen molekularida elektron zichligi qanday taqsimlangan? Nosimmetrik olefinlarda nima uchun dipol momenti mavjud bo'ladi?

26- masala. Nima uchun alkenlarning gomologik qatorida geometrik izomeriya mavjud bo'ladi?

